

Xorazm viloyati hokimligining
2026-yil 27 -fevraldagi 4-634-sonli
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Xorazm viloyati Kengashining 2026-yil
27 -fevraldagi 3-12.S-sonli
Savdon-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy
boshqarmasi boshqaruv kengashining
2026-yil 04.03 -fevraldagi 38 -sonli qo'shma
qaroriga 1-ilova

**Xorazm viloyat hokimligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Xorazm viloyat Kengashi hamda Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy
boshqarmasi o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha 2026-2028 yillar
uchun**

HUDUDIY JAMOA KELISHUVI

Xorazm viloyati hokimligi (bundan buyon – “viloyat hokimligi”), O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyat Kengashi (bundan buyon – “Kasaba uyushmalari”) va Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (bundan buyon – “Ish beruvchilar”) keyingi o'rinlarda “Taraflar” deb ataluvchi vakolatli vakillar timsolida:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga amal qilib; fuqarolarning huquq va erkinliklari, mustaqil O'zbekiston manfaatlari ustuvorligini e'lon qilib;

O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi hamda “O'zbekiston - 2030 strategiyasiga amal qilgan holda;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2025-yil 17-oktyabrda O'zbekiston kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida berilgan topshiriqlarni ijroga qaratgan holda;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo'yilgan: Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va rivojlantirish, iqtisodiy salohiyatni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligi va faoliyati samaradorligini kuchaytirish asosida aholi turmush darajasini ko'tarish vazifasi so'zsiz bajarilishi lozimligini tasdiqlab;

davlat, ish beruvchilar va xodimlarning ijtimoiy mas'uliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy muloqot muhimligini e'tirof etgan holda;

xodimlar va ish beruvchilarning huquqlari va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, aholi hayot darajasini muttasil oshirib borish, jamiyatda ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni saqlash borasida samarali hamkorlikni kuchaytirish maqsadida ijtimoiy sheriklik tamoyilini amalga oshira borib;

Xorazm viloyatida kelishilgan holda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi mazkur Hududiy jamoa kelishuvini tuzdilar (bundan buyon “Kelishuv”) va o'z zimmlariga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha majburiyatlarni oldilar.

I. Iqtisodiyotni, mahalliy ishlab chiqarishni hamda tadbirkorlikni rivojlantirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash borasida belgilab berilgan chora-tadbirlar o‘z vaqtida va so‘zsiz bajarilishiga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida Taraflar kelgusi davrda quyidagilarni o‘ta muhim deb hisoblaydilar:

1. Mamlakatimizni Jahon savdo tashkiloti a‘ziligiga kirishi munosabati bilan iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish, sanoatni va tashqi savdoni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, tayyor mahsulot eksportini rag‘batlantirish bilan bir qatorda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish choralari joriy etish hisobiga viloyat iqtisodiyoti raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirishga doir ishlarni hamkorlikda olib borish.

2. Iqtisodiyotda xususiy mulk ulushini oshirish, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, faoliyatning barcha sohalarida davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha islohotlarni yanada chuqurlashtirish.

Bunda iqtisodiyotning real sektoridagi mahalliy korxonalar va innovatsion korxonalar uchun qulay kreditlashni ta‘minlash, shu jumladan, import o‘rmini bosish va texnologik suverenitetni ta‘minlash sohasidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish.

3. Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi uch yilda aholi jon boshiga daromadni 5,6 ming AQSH dollariga yetkazish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish.

4. Budjet siyosati inson kapitalining o‘shishini qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishni rag‘batlantirish va barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lishini ta‘minlash.

5. Viloyat iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi hududiy mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 40 foizga yetkazish.

6. Sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 905,8 mln. AQSH dollariga yetkazish va 3 mingga yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish.

7. Viloyatda iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 16 foizga oshirish.

8. Viloyatda raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini 3,5 foizga yetkazish.

9. Viloyatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.

10. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish.

11. Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida viloyat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish amalga oshirish.

12. Aholi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida, investitsiya dasturlari doirasida 310 km ichimlik va oqova suv tarmog'i (shundan, 284 km ichimlik suvi, 26 km oqova suvi tarmog'i), 7 ta ichimlik suvi inshooti, 38 ta nasos, 765 km ichki yo'l inflatuzilmasini ta'mirlash hamda mavjud 72 maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarini ta'mirlash, 9 ta yangilarini barpo etish yo'li bilan qamrovni kengaytirish.

13. Shaharlar va tumanlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish.

14. Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, viloyatning chekka hududlari o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini rivojlantirish.

15. Teng raqobat sharoitlarini yaratish maqsadida sanoat, savdo, qurilish, farmatsevtika va transport sohalaridagi norasmiy tadbirkorlik faoliyatini soyadan chiqarishga ko'maklashish.

16. Davlat xaridlari bo'yicha tender komissiyalari ishiga tegishli kasaba uyushmalari tashkilotlari vakillarini maslahat ovozi huquqi bilan jalb qilish.

II. Norma ijodkorligi ishlarida ishtirok etish va xodimlarning huquqiy himoyasini ta'minlash

Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish va huquqiy himoya mexanizmlaridan samarali foydalanish yo'li bilan xodimlarning mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida, Taraflar quyidagilarni o'z zimmlariga oladilar:

17. Xodimlarning mehnat va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va qonuniy manfaatlariga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda tegishli O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyat kengashi hamda Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasiining ishtirokini ta'minlash.

18. Xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalarini tegishli kasaba uyushmasi yoki kasaba uyushmalari birlashmasi bilan kelishish ishlarini qat'iy ta'minlash (O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasi).

19. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini amaliyotda qo'llash borasida quyidagilarni birgalikda amalga oshirish:

mehnat sohasidagi qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqilayotganda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi normalarni qabul qilish bo'yicha takliflar kiritish;

ish beruvchi va xodim o'rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilishda kasaba uyushmalarining yarashtiruvchi, murosaga keltiruvchi bo'g'in sifatidagi faolligini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rish.

ish beruvchi va kasaba uyushmasi o'rtasida jamoa shartnomasida shartlashilgan majburiyatlarni bajarmaslik oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jamoaviy mehnat nizosining taraflari quyidagi asoslarga (sabablarga) ko'ra mehnat arbitrajida hal etish (tartibga solish) yuzasidan muzokaralar o'tkazishi shart:

jamoaviy mehnat nizosini mediator ishtirokida hal etish (tartibga solish) yakunlanganidan keyin kelishmovchiliklar bayonnomasi tuzilgan taqdirda;

mediator nomzodi xususida jamoaviy mehnat nizosi taraflarining kelishuviga erishilishi kerak bo'lgan muddat tugagan taqdirda;

taraflarning yoki taraflardan biri jamoaviy mehnat nizosini mediator ishtirokida hal etishni (tartibga solishni) rad etganligi to'g'risidagi bayonnoma rasmiylashtirilgan taqdirda;

jamoaviy mehnat nizolari ushbu pog'onalarda sudgacha hal etilmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda sud organlariga murojaat qilinadi.

20. Xalqaro mehnat tashkilotining quyidagi konvensiyalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo'yicha takliflar berish.

Ijtimoiy ta'minotning eng kam normalari to'g'risidagi 102-son;

Eng kam ish haqini o'rnatish to'g'risidagi 131-son;

Hamshiralarning bandligi hamda mehnat va turmush sharoitlari to'g'risidagi 149-son;

Mehnat statistikasi to'g'risidagi 160-son;

Mehnat gigiyenasi xizmatlari to'g'risidagi 161-son;

Tadbirkor to'lovga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda mehnatkashlarning talablarini himoya qilish to'g'risidagi 173-son;

Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi 1952 yilgi konvensiyani qayta ko'rib chiqish haqidagi 183-son;

Qishloq xo'jaligida mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risidagi 184-son.

21. Quyidagilarga doir takliflarni birgalikda ishlab chiqish:

mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga oid qonunchilik hujjatlari loyihasi ishlab chiqilayotganda Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama respublika komissiyasini jalb qilishni nazarda tutuvchi qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha loyiha;

platformalarda faoliyat yuritayotgan fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini ta'minlash, ularning hayoti, xavfsizligini sug'urtalash bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi;

O'zbekiston Respublikasining Nodavlat-notijorat tashkilotlar to'g'risidagi kodeksi, "Majburiy tibbiy sug'urta to'g'risida"gi, "Xorijiy ta'sir ostidagi shaxslar to'g'risida"gi qonunlari loyihalari;

"tirikchilik uchun zarur eng kam miqdor" tushunchasini qonuniy tartibga solish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi;

milliy qonunchilik va amaliyotni Xalqaro mehnat tashkilotining ratifikatsiya qilingan 95, 132, 148, 155, 156, 167, 175, 187-sonli konvensiyalari talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.

22. Mehnat bozorini tartibga solish sohasida qonun bilan o'rnatilgan tartib ustidan nazorat samaradorligini, shu jumladan, kasaba uyushmalari inspeksiyalarining ishtirokini kengaytirish yo'li bilan oshirish.

23. Ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar va ishonch telefonlari tarmog'ini kengaytirish, sayyor qabullarni joriy etish orqali ijtimoiy-mehnat masalalari yuzasidan aholi bilan qayta aloqa mexanizmi kanallarini yanada ko'paytirish.

24. Mehnat qonunchiligi buzilishining oldini olish borasida kasaba uyushmalarining barcha hokimlik va boshqarmalar hamda Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi bilan tizimli hamkorligini ta'minlash.

25. Boshqarma, Kasaba uyushmalarining mehnat qonunchiligi talablari buzilgan holatlar bo'yicha kiritgan ko'rsatmalarini ish beruvchilar (ularning birlashmalari) ko'rib chiqmaganda yoki undagi talablarni bajarishni asossiz rad etganda qonuniy vakolatlarni qo'llagan holda bajarilishini ta'minlashda ko'maklashadi.

26. Agarda qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tashkilotlarda kasaba uyushmasi qo'mitasi mavjud bo'lgan barcha hollarda xodim bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishni shu qo'mita bilan kelishib olish.

27. Ma'lum bir sohada xodimlarni ommaviy ravishda ishdan ozod etish ehtimoli to'g'risida kamida ikki oy oldin tegishli tarmoq kasaba uyushmasi viloyat kengashi, birlashgan kasaba uyushma qo'mitalariga korxonalar va tashkilot rahbariyati tomonidan axborot taqdim etish va ishdan ozod etish oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan maslahatli ishlarni amalga oshirish.

28. Xodimlar, ish beruvchilar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining mehnat qonunchiligi bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirish.

29. Davlat organlari va tashkilotlari hamda davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining inson resurslari bilan ishlashga mas'ul tarkibiy tuzilmalarining rahbar va xodimlarini har yilda kamida bir marta mehnat munosabatlarini tashkil etish bo'yicha malakasini oshirib borish.

30. Xalqaro mehnat standartlarining mazmun-mohiyatini keng targ'ib qilish, ularning tashkilotlarda ijrosi yuzasidan birgalikda monitoring o'rnatish.

31. Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etgan ish beruvchilarda qisqartirishga tushgan xodimlarni zamonaviy soha va mutaxassisliklarga qayta o'qitish choralarini ko'rish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.

III. Mehnatga haq to'lash, daromadlar va aholining turmush darajasi

Taraflar kelgusi davrda aholi daromadlari va turmush darajasini og'ishmay yuksaltirib borishni, viloyat fuqarolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmui amalga oshirilishi zarur deb hisoblaydilar. Shu maqsadda Taraflar quyidagilarni o'z zimmlariga oladilar:

32. Mazkur Kelishuvning amal qilish davrida mehnatkashlarning real ish haqi va daromadlarini oshirishga, yalpi hududiy mahsulot tarkibida mehnat haqi ulushini 30 foizdan kam bo'lmagan miqdorda saqlab turishga doir choralar ko'rish.

33. Kelgusi besh yilda aholining daromadi va xarid qobiliyatini oshirish bo'yicha ishlar izchil davom ettiriladi. 2026 -yilda inflyatsiya darajasi 6-6,5 foizga tushiriladi.

34. Xo'jalik hisobidagi tashkilotlarda xodimlar mehnatiga haq to'lashni tashkil etish uchun asos sifatida Yagona tarif setkasining oshirilgan tarif koeffitsiyentlarini belgilashni jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali amalga oshirish.

35. Mehnatga haq to'lashning tarif tizimidan tarifsiz tizimlariga o'tishni tegishli tarmoq kasaba uyushmasi bo'linmasi bilan oldindan kelishib olinishini hamda xodimlarning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholashga boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti saylanma organi vakillari jalb etilishini ta'minlash.

36. Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar barcha tashkilotlarda:

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentyabrdagi 743-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlarning ayrim texnologik turlari, ishlab chiqarishlar va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishchilarning tarif stavkalarini oshirishning tarmoq koeffitsiyentlarini qo'llash tartibi va ularning miqdorlari to'g'risidagi nizom talablarini;

ko'chma va qatnash tusidagi ishlar uchun ustamalar belgilanadigan kasblar va lavozimlar ro'yxati, shuningdek, ustamalar miqdori ish beruvchilar tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishgan holda belgilanishini va jamoa shartnomasida ko'rsatilishini;

Avtomobil transporti haydovchilari mehnatiga haq to'lashning umumiy shartlari to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3130, 2019-yil 23-yanvar) talablarini tatbiq qilinishini ta'minlash.

37. Xotin-qizlar va erkaklar ish haqi o'rtasida genderga asoslangan farqli holatlarni o'rganish va bunday holatlar aniqlanganda, ularni tizimli bartaraf etish choralari ko'rish.

38. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga rioya etilishi, mehnatga haq to'lash tizimlari kasaba uyushmasi qo'mitalari bilan kelishuvga binoan belgilanishi, ish haqidan qonunchilikda ko'zda tutilmagan ushlab qolishlarga yo'l qo'yilmasligi ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini o'rnatish.

39. Ish beruvchi tomonidan ish haqini va boshqa to'lovlarni to'lash muddati buzilgan taqdirda, ularni to'lov muddatidan keyingi kundan e'tiboran to haqiqatda hisob-kitob qilingan kunning o'z ichiga olgan muddatgacha har bir kechiktirilgan kun uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'sha vaqtda amalda bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda foizlar (pulli kompensatsiya) bilan birga to'lanishini nazoratga olish va ta'minlash.

40. Ish haqini o'z vaqtida to'lash masalasini viloyat hokimligi darajasida muntazam ravishda ko'rib chiqish va zarur hollarda ish haqidan qarzdorlikni to'liq bartaraf etish choralari ko'rish.

41. Ish beruvchilarga ishlab chiqarishdan ajralmagan holda kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi vazifasini bajaruvchi xodimga uning oylik (lavozim) maoshining (ishbay haq to'lanadigan xodimning esa o'rtacha oylik ish haqining) kamida 20 foiz miqdorida qo'shimcha haq to'lashni tavsiya etish.

42. Kasaba uyushmalari tomonidan xodimlarning mehnat malaka darajasini hamda mehnat sharoitlarini hisobga olgan holda ish haqi to'lanilishi ustidan tizimli jamoatchilik nazoratini o'rnatish.

IV. Mehnat bozorini rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish

Mehnat bozorining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash hamda aholini ish bilan ta'minlanganlik darajasining yuksaltirilishini o'z maqsadi deb e'tirof etgan holda Taraflar yangi ish o'rinlarini yaratish, kadrlar salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirish borasida kuchlarni birlashtirish zarur deb hisoblaydilar va quyidagilarni o'z zimmalariga oladilar:

43. Bandlik yo'nalishlari, tarmoqlar va hududlar kesimida aholi bandligi yillik dasturlarini ijtimoiy sheriklar ishtirokida ishlab chiqish va bajarish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlab borish. Bunda barqaror ish haqini va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlovchi doimiy ish o'rinlari, ayniqsa, qishloq joylarida yaratilishiga, ish o'rinlarini tashkil etayotgan ish beruvchilarni yanada rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish.

Viloyat aholisini doimiy ish bilan band qilish manzilli dasturi asosida 49 ming 653 nafar, jumladan, investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobidan 7 ming 225 nafar, xizmat ko'rsatish va servis loyihalarini ishga tushirish hisobidan 13 ming 424 nafar, qishloq xo'jaligi sohasida 3 ming 400 nafar, qurilish sohasida 1 ming 662 nafar, bo'sh ish o'rinlari hisobiga 7 ming 942 nafar, bank tomonidan o'z mijozlariga kredit ajratish hisobidan 16 mingta ish o'rinlarini yaratib aholining ishsiz qatlamini bandligini taminlash.

44. Norasmiy sektorda band aholi ulushini jami band aholi (tashqi migratsiyaga ketganlar bundan mustasno) soniga nisbatan 21 foizgacha qisqartirish.

45. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2173, 2010-yil 28-dekabr) talablari bajarilishini nazoratga olish.

46. O'zini o'zi band qilganlarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, maqsadli jamg'armalardan olingan subsidiyalar va kreditlardan (yoki tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha boshqa chora-tadbirlardan) foydalanish samaradorligini hamda ular yaratgan ish o'rinlari samaradorligini monitoring qilish.

47. Xalqaro mehnat tashkilotining uslubiyoti bo'yicha hisoblab chiqilgan umumiy ishsizlik iqtisodiy faol aholining 5 foizidan oshmasligini ta'minlash, ishsiz fuqarolarni kasbiy tayyorgarlikdan o'tkazish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Shuning bilan birgalikda, 2026-yilda viloyatning tuman, shaharida hisobga olingan 79 ming 653 nafar ishsiz aholini doimiy ish o'rinlarida daromadli bandligini ta'minlagan holda bosqichma-bosqich 8 ta shahar va tumanlarni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish.

2026-yilda viloyatning 13 ta tuman, shaharda hisobga olingan 69,7 ming (4,0%) aholini daromadli bandligini ta'minlagan holda bosqichma-bosqich kambag'allikdan chiqarish, 8 ta shahar va tumanlarni kambag'allikdan xoli hududga aylantirish va bu boradagi ishlarni tizimli davom ettirish.

48. Oliy, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidan muddatli harbiy xizmatdan qaytgan shaxslar, yoshlar, voyaga yetmagan farzandlari bor ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining boshqa toifalarini ishga joylashtirilishiga har tomonlama ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 965-sonli qarori asosida har yili ushbu qatlamdagi 1 ming 167 nafar fuqaroni bandligini ta'minlash.

49. Mehnat bozorini tahlil qilish asosida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni, ta'lim muassasalari bitiruvchilarini mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirilishi va ish o'rinlarida qo'nimlilik ta'minlanishi uchun ish beruvchilarni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

50. Ijtimoiy sheriklar tomonidan bandlikning beqaror turlarida band fuqarolar huquqlari ta'minlanishiga, xususiyl bandlik agentliklari faoliyati ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishga, kasaba uyushmalarining hamda ish beruvchilar vakillarining hokimliklar huzuridagi tegishli ishchi komissiyalar tarkibiga jalb etilishini ta'minlash.

51. Yuridik shaxslarning tugatilishi va qayta tashkil etilishi natijasida ish joyidan bo'shatilgan xodimlarning qonuniyl huquqlariga rioya etilishi, ularni qayta o'qitish, malakasini oshirish va ishga joylashtirishga ko'maklashish.

52. Ishlab chiqarish korxonalarida malakali kadrlarga ehtiyoj yuqoriligini inobatga olgan holda dolzarb kasblar (payvandchi, elektromontyor, turli dastgohlarni ishlatish bo'yicha mutaxassislar, xizmat ko'rsatish sohasidagi mutaxassislar va h.k.)ga tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli innovatsion o'quv kurslar tarmog'ini kengaytirish va ular orqali har yili kamida 10 ming nafar ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni qamrab olish.

53. Kasbiyl ta'lim olishning dual shaklini joriy etish va ishlab chiqarishda "Ustoz-shogird" tizimini rag'batlantirish.

54. Norasmiyl sektorda band bo'lganlarning kamida 20 foizini ish joyini yo'qotishdan ijtimoiyl sug'urtalash bilan qamrab olish.

55. Yoshlar, ayollar va aholining ijtimoiyl himoyaga muhtoj qatlamlari uchun inklyuziv va adolatli iqtisodiy o'sish natijasida yaratilgan bandlik va munosib mehnat imkoniyatlari to'g'risida aholi o'z vaqtida va xolisona xabardor qilinishini ta'minlash.

56. Yoshlar, xotin-qizlar va band bo'lmagan aholi o'rtasida kasbga yo'naltirish mexanizmlarini targ'ib qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni, shu jumladan, kasbga yo'naltirish va martabani rivojlantirish markazlarini tashkil etish orqali ishlab chiqish.

57. Mehnat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar to'g'risida aholi va ish beruvchilarning xabardorligini oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari (yoshlar, ayollar, nogironlar va boshqalar)ni chekka hududlarda bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini tashkil etish orqali ishga joylashtirish.

58. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 1-martdagi PQ-149-son qarorida belgilab berilgan vazifalar doirasida xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan viloyat fuqarolarini va ularning oila a'zolari uchun ijtimoiy himoya choralari ko'rish.

59. Mamlakat fuqarolarining xorijga mehnat migratsiyasiga ommaviy ravishda ketishini oldini olish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilishini, shu jumladan, viloyatda raqobatbardosh ish o'rinlarini barpo etishga ko'maklashish orqali ta'minlash.

60. "Yashil ishlab chiqarish" tamoyillarini joriy etish jarayonida energiya tejamkorligi texnologiyalariga o'tishda ish o'rinlari qisqartirilishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish.

61. Sun'iy intellekt joriy etilishi natijasida ish o'rinlarini yo'qotayotgan xodimlarni boshqa kasblarga o'qitish va bandligini ta'minlash.

V. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi

Mehnat xavfsizligi va gigiyenasini hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri deb hisoblagan holda, Taraflar o'z zimmlariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:

62. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi tizimini joriy etish, uning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlashda ishtirok etish.

63. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha ishlab chiqiladigan davlat dasturiga takliflar berish.

64. Kasaba uyushmalari Xorazm viloyat Kengashi, viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi hamda ishlarni bexatar olib borish bo'yicha maxsus vakolatli organlar bilan hamkorlikda mehnat muhofazasi va gigiyenasi, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklari haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun yagona elektron monitoring tizimini joriy etish bo'yicha takliflar kiritish.

65. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda ish beruvchilar tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni doimiy moliyalashtirishni nazorat qilish.

66. Ish o'rinlarining avtomatlashtirilishi, mehnat jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish natijasida ish o'rinlari yo'qotilishi sababli yangi ish o'rinlarini xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratgan holda tashkil etish choralari ko'rish.

67. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlarda hamda tarmoq va hududiy kelishuvlar, jamoa shartnomalarida ko'zda tutilgan, xodimlarga yaratilgan mehnat sharoitlari, sanoat va ekologik xavfsizlik holatini davlat nazorat organlari bilan hamkorlikda o'rganishni amalda keng qo'llash.

68. Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha viloyat uch tomonlama komissiyasining vakolati doirasida davlat va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish:

kasb kasalliklari ro'yxatini shakllantirishda tegishli tarmoq kasaba uyushmalari bilan kelishib olinishi;

tashkilot rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslardan mehnat sharoitlari va xavfsizligi, shuningdek, ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari to'g'risida to'liq axborot olinishi;

korxonalar, tashkilot va muassasalarda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha tadbirlarning moliyalashtirilishi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan davlat tomonidan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinishini, shuningdek, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tizimini ta'minlanishi;

ish o'rinlarida mehnat sharoitlarining holati, ayniqsa, o'ta zararli ishlab chiqarish omillari va o'ta xavfli ishlab chiqarish omillari yuzasidan nazorat amalga oshirilishi;

xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar belgilanadigan, imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqi beriladigan, nogironligi bo'lgan shaxslar band bo'lgan zararli, xavfli va boshqacha mehnat sharoitlariga ega ish o'rinlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilishi;

dastlabki tarzda (ishga kirayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'riklar belgilangan tartibda o'tkazilishi;

ish beruvchilarning jamoa shartnomalari va kelishuvlarida mehnat xavfsizligi va gigiyenasi holati yuzasidan ko'zda tutilgan majburiyatlarini bajarishini o'rganish;

xodimlarga qonunchilik hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni berilishi hamda ularga mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilgani, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'quvdan va malaka oshirishdan o'tganligi;

xodimlar belgilangan normalar bo'yicha sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan tuzli suv, shaxsiy himoya hamda gigiyena vositalari bilan ta'minlanishi, shuningdek, jamoaviy himoya vositalari qo'llanilishi holati;

ishlab chiqarish obyektlari va ishlab chiqarish vositalarini sinash va foydalanish uchun qabul qilish komissiyalari ishida hamda tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi majlislarida mustaqil ekspert sifatida ishtirok etilishi;

mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish natijadorligi;

ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi talablarining buzilishi va baxtsiz hodisalarni yashirganlikda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida vakolatli organlarga murojaat qilinishi;

mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha vakolatli vakillarni saylash, o'qitish va ularning malakasini doimiy ravishda oshirib borish hamda jamoa shartnomalari va kelishuvlarini ular o'z faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun qulay sharoitlarni yaratish majburiyatini kiritilishi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-iyuldagi "Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 454-sonli qarori ilovasi bilan tasdiqlangan Namunaviy Nizom talablarini amaliyotga tadbiiq etish va ijrosini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabdagi "Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 819-sonli qarori ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomlar talablarini amaliyotda joriy etish va ijrosini ta'minlash;

- kasaba uyushmalari tizimida mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish yuzasidan uch tomonlama hamkorlarni jalb etgan holda viloyat ko'rik-tanlovini tashkil etish va o'tkazish;

- mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish hamda ularni xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqish va joriy etish dasturini tasdiqlash, uni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha ishlar muvofiqlashtirilishini ta'minlash.

69. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi masalalarining muhim o'rin tutishi haqida jamoat fikrini shakllantirish bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali keng tushuntirish ishlarini olib borish.

70. Band bo'lgan aholining mehnatini muhofaza qilish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida qishloq xo'jaligida, sanoatda, qurilishda, aloqada, tashish, saqlash va xizmat ko'rsatish sohaslarida mehnat muhofazasiga oid talab va me'yorlar standartlarini ishlab chiqish.

71. Har yili 28-aprel – Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuniga bag'ishlab haftalik tashkil etish va barcha tashkilotlarda nishonlanishini tashkil etish.

72. Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar barcha tashkilotlarda Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan mehnat muhofazasiga oid konvensiyalari talablari bajarilishi ustidan monitoring olib borish.

73. 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish ishlarida ishtirok etish, munosib mehnat maqsadiga yetishda sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilishi uchun tizimli chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash.

74. Davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va ijro etilishi bo‘yicha jamoatchilik nazoratini olib borish.

75. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga oid xorijiy tajribani o‘rganish, malaka oshirish uchun rivojlangan davlatlarga xizmat safarlarini hamda tizimli ishlarni tashkil qilish.

76. Onlayn platformali bandlik sharoitida mehnat muhofazasi talablarini belgilash bo‘yicha uch tomonlama hamkorlar bilan kelishgan holda normativ-huquqiy hujjat qabul qilish.

VI. Ijtimoiy kafolatlar va himoya

Xodimlar hamda ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilish, munosib hayot uchun mehnat qilish shart-sharoitlarini yaratib berish maqsadida Taraflar o‘z zimmlariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:

77. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25 -iyuldagi PF-175 son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasida belgilangan vazifalar o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini nazoratga olish.

78. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 28-dekabrda PQ-2705-son qarorini amalga oshirishga har tomonlama ko‘maklashish.

79. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturlari bajarilishiga har tomonlama ko‘maklashish.

80. Har bir mahallada yolg‘iz keksalar, pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalayotgan, kam ta‘minlangan hamda ko‘p bolali oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish uchun har yili “Navro‘z” va “Mustaqillik” bayramlari arafasida maqsadli umumxalq xayriya hasharlarini o‘tkazish.

81. Jamoa kelishuvlari va shartnomalari orqali kam ta‘minlangan oilalarga, ko‘p bolali oilalarga, urush va mehnat faxriylariga doimiy ravishda moddiy yordam ko‘rsatib borish.

82. Viloyat hokimligi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyat kengashi va Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan yolg‘iz keksalarga, shuningdek, “Saxovat” va “Muruvvat” uylariga moddiy ko‘mak choralarini qo‘llash.

83. Davlat ijtimoiy yordamlarini, subsidiyalar yoki imtiyozli kreditlarni oluvchi shaxslar bilan ijtimoiy kontraktlar tuzilishini ta‘minlash.

84. Notinch va kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Oilaviy sayohat” turistik paketlarni joriy etish.

85. Maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarida yosh bolali xotin-qizlarga munosib ish o‘rinlarini yaratish maqsadida ularning farzandlari uchun turli ijtimoiy obyektlar (bog‘cha, sportzal, bolalarga vaqtinchalik qarab turish xizmatlari kabilar) barpo etish.

86. Favqulodda holatlar yuzaga kelgan taqdirda aholi uchun Xalqaro mehnat tashkilotining "Tinchlikni va qarshi harakat salohiyatini ta'minlash maqsadida bandlik va munosib mehnat to'g'risida"gi 205-sonli tavsiyasi asosida ijtimoiy himoya choralarini ko'rish.

VII. Madaniy-ma'rifiy ishlar, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, ichki turizmni rivojlantirish, mehnatkashlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish

Taraflar o'z zimmlariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:

87. Xodimlar va ularning oila a'zolarining foydali hamda mazmunli hordiq chiqarishlarini tashkil etish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlarini hamkorlikda o'tkazish.

88. Davolanish va dam olish uchun zamonaviy sharoitlar yaratish, sanatoriylar va dam olish uylari, shuningdek, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida o'rinlar sonini ko'paytirish hamda ularni modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratish.

89. Davlat -xususiy sherikchilik asosida viloyatda har yili bittadan sanatoriy qurish orqali "Xorazm" tajribasini targ'ib etish.

90. Xodimlarga jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun yetarli sharoitlar yaratib berish (sport maydonchalari tashkil etish, maxsus sport xonalarini ajratish), turli sport seksiyalari va to'garaklariga jalb etish, mehnat jamoalarida xodimlar gimnastikasini joriy etish hamda jismoniy tarbiya jamoalari faoliyatini yo'lga qo'yish.

91. Jamoa shartnomasi va kelishuvlarida nazarda tutilgan madaniy-ma'rifiy ishlar, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, ichki turizmni rivojlantirish, mehnatkashlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish hamda boshqa maqsadlar uchun ish beruvchi hisobidan mablag'lar ajratish.

92. Har yili ishlovchi kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar a'zolari, Chernobil AESdagi falokatni bartaraf etish ishtirokchilari, baynalmilalchi jangchilar, ishlayotgan mehnat faxriylari va nogironligi bo'lgan shaxslar hamda Vatan oldida xizmatlari mavjud shaxslarning ma'lum miqdorini kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda bepul sog'lomlashtirishni ko'zda tutish.

93. Yoz mavsumida bolalarning bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishi va sog'lomlashtirilishini tashkil etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirib borish.

94. Bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilari, shuningdek, respublikaning ekologiya jihatdan noqulay mintaqalarida istiqomat qiluvchi bolalar sog'lomlashtirilishiga doimiy ravishda ko'maklashish.

95. Ish beruvchilarga xodimlar va ularning oila a'zolarini har yili madaniy dam oldirish va sog'lomlashtirishlarini hamda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasidagi sayohatlari uchun sharoit yaratishlarini tavsiya etish.

96. Viloyat hokimligi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyat Kengashi va tarmoq kasaba uyushmalari tomonidan kasaba

uyushmalari bog'larini tashkil etish maqsadida belgilangan tartibda yer maydonlarini ajratishni o'z zimmasiga oladi.

97. Korxonalar va tashkilotlarda kasaba uyushmalari tashabbuslari bilan ishxonalar va mahallalarda yashil hududlarni kengaytirish hamda tozalik va obodonchilik ishlarini tashkil qilish.

98. Korxonalar va tashkilotlardagi kasaba uyushmalari jamoalari o'rtasida "Ekologik faol kasaba uyushmasi jamoasi" tanlovi o'tkazish va g'oliblarni rag'batlantirish.

VIII. Ayollar va yoshlar uchun qo'shimcha kafolatlar

Taraflar ayollar va yoshlar uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan kafolatlariga rioya etishni va imtiyozlar berishni o'z zimmasiga olgan holda quyidagilarni zarur deb hisoblaydilar:

99. Ayollar va yoshlarga qo'shimcha imtiyozlar berilishini nazarda tutuvchi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish va Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalariga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish hamda ularga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar berish.

100. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus"i bo'yicha dasturlaridan kelib chiqib yoshlar va xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan:

ishlayotgan yoshlar faoliyatidagi, oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalarida salbiy holatlarni, jumladan, ertangi kunga ishonch so'nishining oldini olish, ish haqi, mehnat sharoitlaridan minnatdorlik hissini uyg'otish maqsadida yoshlar o'rtasida madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini amalga oshirish;

yoshlarning xorijiy til, kompyuter savodxonligi hamda zamonaviy bilimlarni mukammal egallashlariga turli xil o'quvlar o'tkazish orqali ko'maklashish, ular orasidan salohiyatli yoshlarni tanlab olgan holda kadrlar zaxirasini shakllantirish.

101. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida quyidagilar nazarda tutilishini ta'minlash:

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash majburiyatlarini tashkilotlarning va ular tarkibiy bo'linmalarining vakolatli shaxsi zimmasiga yuklatish;

ishga qabul qilish va xizmat bo'yicha ko'tarishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish;

xotin-qizlar va erkaklar mehnatiga haq to'lashda notenglikka yo'l qo'ymaslik.

102. Jamoa shartnomalari va kelishuvlarida ayollar va yoshlarga imtiyozlar berish, ular uchun ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash choralarini qo'llash masalalarini nazarda tutish, shu jumladan:

xo'jalik hisobidagi tashkilotlarda homiladorlik va tug'ish ta'tillari kunini uzaytirish;

yosh bolali ayollarga moddiy yordam ko'rsatish va qisqartirilgan ish vaqtini o'rnatish;

ta'lim muassasalari bitiruvchilariga mehnat munosabatlari sohasida qo'shimcha imtiyozlar o'rnatish;

xotin-qizlarning jismoniy faolligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

xotin-qizlar uchun sayohatlarini tashkil etib borish;

xo'jalik hisobidagi tashkilotlarda uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar xarid qilish, uy-joy qurilishi, shuningdek, safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o'tashga haq to'lash uchun yosh xodimlarga foizsiz ssudalar berish.

103. "Kasaba uyushmalari – ayollar manfaati yo'lida" shiori asosida xotin-qizlar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha yangi tizimni joriy etish, unda mehnat bozorida xotin-qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga ko'maklashish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy etish, qishloq joylarida ayollar bandligi va tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlarini yanada kengaytirishni nazarda tutish.

104. Mehnat jamoalaridagi gender audit natijalarini muhokama qilib, ish beruvchilar bilan birgalikda xotin-qizlarga yanada qulay mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha amaliy choralarni belgilash.

105. "Ayollar daftari" orqali yordam ko'rsatiladigan ayollar toifalariga uy-joy va yashash sharoitini yaxshilashga, tibbiy va psixologik yordamga muhtoj, tazyiq va zo'rvonlikka uchragan hamda huquqiy yordamga muhtoj ayollarni ham qo'shishni nazarda tutish.

IX. Ijtimoiy muloqot va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish

Taraflar, ijtimoiy-mehnat munosabatlari sohasidagi muammolarni ma'rifiy yo'l bilan hal etish uslubi hisoblangan ijtimoiy muloqot g'oyasiga sodiqligini e'lon qilib, o'z zimmalariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:

106. Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar birlashmalarining qonuniy huquqlariga rioya etish, ularning qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda tuzilishiga va faoliyat yuritishiga to'squinlik qilinishiga yo'l qo'ymaslik.

107. Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha hududiy uch tomonlama komissiyalarning roli va samaradorligini oshirishga, tarmoq va boshlang'ich darajadagi ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha komissiyalar tuzilishiga ko'maklashish.

108. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari (klasterlar) ish beruvchilariga kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish yuzasidan tavsiyalar berish.

109. Norasmiy tarzda band bo'lgan (ayniqsa, qurilish, transport, savdo, umumiy ovqatlanish, fermer xo'jaliklari va boshqa sohalarda), shuningdek, kunlik ishchilar hamda o'zini o'zi band qilgan fuqarolarni kasaba uyushmalariga jalb qilish choralarini ko'rish.

110. Yagona muzokara jarayonini tatbiq qilish maqsadida quyidagilarni tavsiya etish:

barcha jamoa shartnomalari va kelishuvlari loyihalarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazishni;

tegishli kasaba uyushmalari va ish beruvchilar (ularning birlashmalari) o'rtasidagi tarmoq jamoa kelishuvlarini tegishli yilning yanvar oyidan, korxonalar, tashkilot, muassasalarda jamoa shartnomalarini esa tegishli yilning mart oyidan kechiktirmay tuzishni;

Hududiy, tarmoq jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomalarini bajarish yakunlarini kasaba uyushmalari va ish beruvchilar tashkilotlarining qo'shma majlislarida, shuningdek, mehnat jamoalarining umumiy yig'ilish (konferensiya)larida har yili 1-apreldan kechiktirmasdan ko'rib chiqilishini.

111. Kasaba uyushmalarining qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlash maqsadida quyidagilarni tavsiya etish:

Viloyat majlislariga xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan masalalar ko'rib chiqilayotganda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xorazm viloyat Kengashi va Savdo sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasining vakillari taklif etilishini;

kasaba uyushmalari viloyat kengashlari raislarini viloyat ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalarining hay'atlari majlislarida ishtirok etishini;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti rahbarini korxonaning boshqaruv organlariga kiritilishini.

112. Boshqarmalar va hokimliklar hamda kasaba uyushmalari kollegial organlarining qo'shma yig'ilishini o'tkazib boradigan va yillik qo'shma dastur tasdiqlanadigan yangi tizimni yo'lga qo'yish.

113. Dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni muhokama qilish uchun kasaba uyushmalari faollari va ish beruvchilarning hokimlik, korxonalar, tashkilotlar, idoralar vakillari bilan jamoatchilik eshituvlarini tashkil etib borish.

114. Xodimlarning yozma arizalari mavjud bo'lganda kasaba uyushmasining tegishli hisobvarag'iga xodimlarning ish haqidano ushlab qolingano kasaba uyushmasiga a'zolik badallari o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash.

X. Kelishuvning amal qilishi, uni amalga oshirish mexanizmi va bajarilishi uchun taraflarning javobgarligi

115. Mazkur kelishuv 2026 – 2028-yillar uchun tuzilgan bo'lib navbatdagisi qabul qilingunga qadar amalda bo'ladi. Kelishuv Xorazm viloyatining butun hududida amal qiladi.

116. Taraflar mazkur kelishuvni ijtimoiy-iqtisodiy masalalar xususida kelishib siyosat olib borishning umumiy prinsiplarini belgilab beruvchi ijtimoiy sheriklikning asosiy hujjati deb e'tirof etadilar hamda mazkur kelishuvga amal qilish, uning barcha shartlarini bajarish majburiyatini o'z zimmlariga oladilar.

117. Mazkur kelishuv imzolanganidan so'ng Taraflar kelishuvda belgilangan vazifalarning to'liq amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida viloyat xokimligi, barcha shaharlar va tumanlar hokimliklariga hamda davlat boshqaruvi organlariga ijro uchun yuborilishini, ular tomonidan zarur chora-tadbirlar belgilanishini ta'minlaydi.

118. Mazkur kelishuvning me'yoriy holatlari tarmoq, hududiy jamoa kelishuvlarga va jamoa shartnomalariga kiritish orqali amalga oshirilishi lozim.

119. Mazkur Kelishuvga imzo chekkan har bir Taraf uning maqsadlari ro'yobga chiqarilishi uchun o'z vakolatlari doirasida mas'uliyatni tan oladi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda hamkorlik qilish majburiyatini oladi.

120. Taraflar mazkur kelishuvning amal qilish davrida quyidagilarni zarur deb hisoblaydilar:

a) ijtimoiy-mehnat munosabatlarining eng muhim masalalari yuzasidan Taraflarning manfaatlariga taalluqli qarorlar qabul qilishdan oldin o'zaro maslahatlashuvlar o'tkazish;

b) har yili kamida bir marta ushbu kelishuv bajarilishining borishi va yakunlarini muhokama qilib borish;

v) ushbu kelishuv bajarilishi ta'minlanib borilayotgan taqdirda, ish tashlash amallaridan voz kechish.

121. Mazkur Kelishuvga imzo chekkan Taraflarning har biri unga avval olingan majburiyatlarning bajarilishiga to'sqinlik qilmaydigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar berishga haqlidir. Ushbu takliflar Taraflarning o'zaro roziligi bilan qabul qilinishi mumkin.

122. Mazkur Kelishuv bajarilishi ustidan nazoratni ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha hududiy uch tomonlama komissiyasi amalga oshiradi.

2026- yil 04. 03. Urganch shahrida tuzildi



Xorazm viloyati hokimi

J. Raximov

**O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining Xorazm viloyat
Kengashi raisi**

G. Kurbanbayeva



**Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati
hududiy boshqarmasi Boshlig'i**

S. Qurbanov



Xorazm viloyati hokimligining
2026-yil 27 -fevraldagi 4-634 -sonli
O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Xorazm viloyati Kengashining 2026-yil
27 -fevraldagi 3-12 -sonli
Savdon-sanoat palatasi Xorazm viloyati hududiy
boshqarmasi boshqaruv kengashining
2026-yil 04.03 fevraldagi 38 -sonli qo'shma
qaroriga 2-ilova

**Xududiy jamja kelishuvning bajarilishi ustidan
nazorat qilish bo'yicha va ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni
bartaraf etish bo'yicha doimiy harakatdagi komissiya**

T A R K I B I

1. A.Davletov – Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari,
komissiya raisi
2. S.Salayev – Viloyat hokimining o'rinbosari,
komissiya raisining o'rinbosari
3. G.Kurbanbayeva – O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining Xorazm viloyati
Kengashi raisi, *komissiya raisining
o'rinbosari*
4. S.Qurbanov – Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati
hududiy boshqarmasi boshlig'i,
komissiya raisining o'rinbosari

Komissiya a'zolari:

5. Sh.Ro'zimatov – Viloyat hokimligi kotibiyat mudiri
6. X.Atadjanov – O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining Xorazm viloyati
Kengashi bo'lim mudiri
7. M.Atabayev – O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasining Xorazm viloyati
Kengashi bo'lim mudiri
8. M.Jabbarov – Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy
boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari
9. I.Raximov – Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy
boshqarmasi bosh mutaxassisi